Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

- Bozorda haqiqiy qiymatidan arzon turadigan aksiyalarni izlash.

2. **Ray Dalio – Diversifikatsiya orqali riskni boshqarish**

- Bir nechta turdagi aktivlardan balansli portfel yaratish.

3. **Benjamin Graham – Fundamental tahlil**

- Kompaniyaning moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish orqali investitsiya qarorini qabul qilish.

Xulosa

Iste’mol, jamg‘arish va investitsiya — har bir insonning kundalik hayotida va butun iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadigan tushunchalardir. Insonlar daromad topgach, uni bir qismini tovar va xizmatlarga sarflaydi (bu iste’mol bo‘ladi), qolgan qismini esa kelajakda foydalanish uchun saqlab qo‘yadi (bu jamg‘arishdir). Jamg‘arilgan mablag‘lar esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarishga yoki boshqa foydali loyihalarga yo‘naltirilsa, bu investitsiyaga aylanadi. Bu uch tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, iqtisodiyotning o‘sishi, barqarorligi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1.S.S.G’ulomov ,,Makroiqtisodiyot’’ darslik. Toshkent (2020y).
2.N.H.Xoliqulov,Q.X.Abdurahmonov,,Makroiqtisodiyot nazariyasi’’ o’quv qo’llanma.Toshkent (2019y).
3.E.I.Ergashev, N.S.Kasimova, U.K.Muxtorova, G.X.Nazarova, M.E.Jabbarov ,,Makroiqtisodiyot’’ darslik. Toshkent (2018y). 4.D.Q.Axmedov,
4. A.E.Ishmuxamedov, Q.X.Jumayev ,, Makroiqtisodiyot’’ o’quv qo’llanma Toshkent (2019y).
5. www.stat.uz- O’zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo’mitasi veb sayti.

MILLIY XO’JALIK SIFATLI TIZIMI AMALIYOTIGA XOS MULOHAZALAR

Ermatov Ilhomjon Ismoiljonovich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Andijon fakulteti
“Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar”
kafedrasi katta o`qituvchisi
Email : iiermatov@gmail.com:
+998-99-480-45-78

Published: 24.05.2025
Cite this article: Ermatov Ilhomjon Ismoiljonovich (2025). Milliy xo’jalik sifatli tizimi amaliyotiga xos mulohazalar. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/333
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Annotatsiya. Maqolada xo`jalik munosabatlaridagi muhim omillar, ularning o`ziga xos qirralari bo`yicha fikrlar tadqiq etilgan. Shuningdek, iqtisodiy tizimlar faoliyatidagi muummoli jihatlar o`rganilgan. Ilgo`r tajribalar namunalari sharxlanib, milliy xo`jalikda erishilgan ijobiy natijalar tahlili keltirilgan. Muallifning ilmiy asoslangan xulosa va takliflari berilgan.

Kalit so`zlar. Globallashuv, taraqqiyot, sinergiya, rotatsiya, integratsiya, kompetentlik, import, ish haqi, eksport, yalpi ichki mahsulot, islohot, chora-tadbir.

Аннатоция. В статье освещены теоретические вопросы эффективности бизнес-структур в сфере услуг, экономического содержания и сущности предпринимательской деятельности. Изучены ученые, которые провели ряд научных исследований по этой теме. Разработаны предложения по развитию предпринимательства в сфере услуг.

Ключевые слова. Предпринимательство, услуги, занятость, рабочие места, социально-экономические показатели, валовой внутренний продукт.

Annotation. The article discusses important factors of economic relations and their specific aspects. Critical aspects of economic systems are also studied. Examples of best practices are commented on and an analysis of the positive results achieved in the national economy is presented. The scientifically based conclusions and proposals of the author are presented.

Keywords. Globalization, development, synergy, rotation, integration, competence, imports, wages, exports, gross domestic product, reform, measures.

Muammoning dolzarbligi. Globallashuv jarayonlarining bugungi shiddatli davrida ijtimoiy-iqtisodiyotning nafaqat rivojlanishi, balki taraqqiyoti barqarorligini hamda sinergiyasini ta`minlash uchun eng maqbul yechim sifatida, ilm-fan yutuqlari va ilg`or tajribalarni milliy xo`jalik munosabatlariga tatbiq etish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu masalaning samarali qaror topishida muhim qonuniyatlar sifatida:

1.Har qanday omildan eng yuksak samara bilan foydalana oluvchi sub`ektgina, unga yuqori to`lov qila oladi;

2.Omildan foydalanish ko`rsatkichi uning nominal quvvatida maqbul samara keltiradi;

3.Har qanday vaqt va makonda o`zgaruvchan omillar qatorida, inson-birlamchi bo`lib qolaveradi;

4.Unumdorlikni kamayish qonuni ta`siri qaysi qo’shimcha jalb etilgan omil hisobiga sust kechsa, boshqa omillar shunga mos tarzda faol sozlanishi zarur;

5.Barcha munosabatlarda yuqori malakali va shaffof me`yoriy-huquqiy asoslar amal qilishi shart.

Bizning fikrimizcha, bunda quyidagi puxta maqsadli chora-tadbirlar qo`llanishi:

- barcha tizimlarda ilm-fan va ta`lim-ishlab chiqarish aloqalarining ko`lamini kengaytirish, dolzarb muammolarni muvofiqlashtirish, aniq ixtisoslashuv hamda fan sig`imini oshirish, amaldagi me`yoriy-huquqiy asoslarga qat`iy rioya muhiti hukm surishi shart;
- shuningdek, milliy tarmoq va sohalarda, xalqaro va ichki-milliy talab mutanosibligini ta`minlash orqali eksportbop va import o`rnini bosuvchi faoliyatga qaratilgan xo`jalik munosabatlarini kuchaytirish zarur;
- ilm-fan↔ta`lim↔ishlab chiqarish integratsiyasi o`zaro yagona maqsad asosida hamkorlikdan boshlanib, birgalikda ilmiy-amaliy ishlanma (yangi dizayn, model, konstruktsiya, tovar, ishlab chiqarish usul-uslublarini takomillashtirish, ixtiro) larni yaratish, hamkorlikdagi ishlarni har tomonlama muvofiqlashtirish kerak;
- ushbu tizim faoliyatining eng sifatli darajasi-birgalikdagi teng va yuksak natijalar, ilmiy ishlanma va ixtirolar mahsulini ishlab chiqarishga to`la tatbiq etilishi, pirovardida import o`rnini to`ldirish, eksport ko`lamidagi ulushni sezilarli oshirish bilan ro`y berishi shart;
- pirovard natijada milliy iqtisodiyotimiz tarmoq va sohalari bosqichma-bosqich o’z brendlarimiz bilan dunyo bozorida barqaror pozitsiyasini egallashi va dinamik kengaytirishi ko’zlanadi.

Yuqorida keltirgan dastlabki mulohazalarimiz mazkur masalaning bugungi kundagi muhim ahamiyatga ega ekanligini to`la asoslaydi.

Prezidentimiz SHavkat Mirziyoev o`z ma`ruzalarida turli tuzilmalar muvofiqlashuvi bo`yicha muhim fikrlarini bildirgan, jumladan: “Ishonchim komilki, dunyo hamjamiyati bilan iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish borasidagi sa`y-harakatlarimiz, do`stlik aloqalari va ko`pqirrali hamkorlikni yanada mustahkamlash bilan birga, yurtimizda yangi tsivilizatsion yuksalish uchun ham xizmat qiladi”. Demakki, o`zaro teng manfaatli hamkorlik aloqalari har qaysi taraf uchun taraqqiyotning yangi-yangi marralarini zabt etishga imkon beradi. Bu, ayni istiqlolimizning sifat davridagi ijobiy o`zgarishlar va yutuqlarda namoyon bo`lmoqda. Olib borilayotgan islohotlar samarasi barcha tizimlardagi barqaror olg`a siljishlarda, tegishli ijobiy ko`rsatkichlarida o`z tasdig`ini ko`rsatayotir.

Adabiyotlar tahlili. Bu borada ko`plab tadqiqotchilar o`z izlanishlarida ham tegishli ilmiy asoslarni keltirib o`tganlar. Ushbu muammolarni o`rganishda xorij va mahalliy olimlarimizdan S.A. Volkov, I.N.Ermatov, Q.X.Abdurahmonov, Yu.G.

Odegov va N.Q.Zokirova kabilar keng kamrovli ilmiy qarashlari bilan yondashgan holda o`zlarining salmoqli tavsiyalarini bildirganlar.

Jumladan, S.A. Volkov o`z izlanishlari xulosalarida milliy xo`jalik qancha mahsulot ishlab chiqarsa, iqtisodiyotda shunga mutanosib ta`minlangan, real pul ayirboshlanishini, bunday tizim har qanday mamlakat xo`jaligi taraqqiyotining birlamchi drayveri ekanini ta`kidlagan [2].

I.N.Ermatovning tadqiqotlarida milliy iqtisodiyot tizimlarining izchil integratsiyalashuvi – taraqqiyotning muhim zarurati sifatida belgilanib, pirovardida yirik iqtisodiy komplekslarini tashkil qilish bilan sog`lom raqobatli bozor muhiti shakllanishi ilgari surilgan. Ushbu integratsiya 4 guruhdan, ya`ni qishloq xo`jaligi, shu tarmoq mashinasozligi; yengil va oziq-ovqat sanoati texnologik uskuna va jihozlar ishlab chiqarish; elektroenergetika, yoqilg`i sanoati kabilar hamda bilvosita - qora va rangli metallurgiya, materialshunoslik kabi sohalarning barqaror va o`zaro muvofiqlashgan xo`jalik yuritishi ilmiy jihatdan asoslangan[3].

Q.X.Abdurahmonov, Yu.G. Odegov va N.Q.Zokirovalar zamonaviy fan -etakchi ishlab chiqarish kuchi, bunda inson kapitali ustuvor rolga ega deb baholaydilar. Rivojlangan davlatlar tajribasida inson kapitali nafaqat sanoat, xizmat ko`rsatish va qishloq xo`jaligi, balki barcha tarmoq va sohalarning mutanosib rivojlanishida asosiy omil ekanini asoslab berishdi. Ayniqsa, yuksak ilmiy salohiyatni iqtisodiyotning real sektori rivojiga ta`siri yuqori ekanini ilgari surdilar [4].

Jumladan, N. Aimbetov ta`kidlaydiki, har qanday tizim unsuri o`zi alohida ishga solinganda, mazkur unsurning tegishli tizim doirasidagi faoliyati natijasidan kamroq samara keltirishi turgan gap [5].

Tahlil va natijalar.

Ta`kidlaganimizdek, jahon tajribasining ilg`or qirralarida fan-ta`lim va ishlab chiqarish integratsiyalashuvning yuqori darajasi, ya`ni sinergiyasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot kafolatida muhim omillardan bo`lgan. Ushbu fikr tasdig`i sifatida Yaponiyadagi mazkur tajribani keltirish mumkin. Kunchiqar yurtda eng dastavval ta`lim munosabatlarining yuqori sifatli muhiti qaror topgan bo`lib, milliy uzoq tajriba hamda an`analar asosiga tayangan holda, yurt istiqboli uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlab berishga chuqur ixtisoslashgan. Yer maydoni kattaligi bo`yicha 61-o`rin (377835 $km^2$), aholi soni bo`yicha 11-o`rin (124613000 kishi), hududining atigi 15% milliy xo`jalik uchun foydalanishga yaroqli bo`lgan mazkur davlat umumjahon nominal yalpi ichki mahsulotida faqat AQSH va Xitoydan keyin 3-o`rinni egallayotgani hammaga ma`lum. O`tgan asr urushso`ngi davrlarida Yaponiyaning qayta jonlanishi va taraqqiyotining asosiy unsurlari – milliy turmush sifatini oshirish, jahon ilg`or

bilimlarini o`zlashtirgan mutaxassislarni tayyorlash, ishlovchilar mehnatini munosib rag`batlantirish bilan texnologik va iqtisodiy samaradorlikni ta`minlashga qaratilgan. Bunda yapon mo``jizasi 5 tizimdan iborat tarzda qaror topdi[6].

1.Umrbod yollashning klassik tizimi asosan yirik korxonalar va davlat xizmatlarida amal qilishi belgilangan bo`lsada, amalda bunday huquqiy asos rasmiy maqomda bo`lmaydi. Mazkur munosabatlar jentlmencha kelishuv hossalariga ega bo`lishi taraflar mas`uliyatini eng mustahkam muhitini yaratadi. Korxona xodimni maktab yoki oliy o`quv yurtidan qabul qilishdan tokim, qarilik davri (pensiya)ga qadar yollaydi. Xodimlar muntazam bandligi, ularning qo`shimcha yoki qisqartirilgan ish vaqtida faoliyat olib borishi, shuningdek, yangi xodimlarni qabul qilishda imtiyoz va cheklovlar asosida tartibga solinadi.

2.Xodimlar rotatsiyasi tizimi, ularning roziligisiz olib boriladi. O`rta hisobda har 2-3 yilda bu amaliyot qo`llanib, xodim kompetentligiga ko`ra maqbul vazifaga o`tkazishga shuningdek, har yili aprel oyida birlamchi band qilish, ya`ni mehnat bozoriga yangi qo`shilgan resursni o`zlashtirishga asoslanadi. Birinchi bor ishga kirgan, yangi ishlovchi albatta o`z malakasiga mos eng quyi lavozimga yollanadi. Rotatsiya dastavval gorizontal, keyinchalik vertikal harakatga yo`naltiriladi.


3.Obro` tizimi har qanday lavozimdagi xodimga o`z mavqeini ishchanlik, tashabbuskorlik va tartiblilik fazilatlariga ega bo`lish shartini qo`yib tartibga soladi. Alohida xodimga nisbatan turli bo`g`inlardagi hamkasblar, hatto mijozlar tomonidan shaffof, haqqoniy tavsifnoma yuritilib boriladi. Ushbu tavsifnoma xodimning butun mehnat faoliyati davomida qat`iy amal qiladi.

4.Ish o`rnida tayyorlash tizimi o`z mohiyatiga ko`ra barcha ta`lim bo`g`inlarida mos yondashuv tartib-taomillariga ko`ra uzviy xarakter kasb etishiga qaratilgan. Insonni kichik yoshdan o`z layoqati va qobiliyati hamda qiziqishlarini hisobga olgan holda kasbga yo`naltirish, boshlang`ich va o`rta va yuqori sinf o`quvchilariga turli murakkablikdagi texnologiyalar va ishlab chiqarish munosabatlarini o`rgatish, ularda ertaroq amaliy malaka va ko`nikmalarni tarbiyalash haqiqatan afzaldir. Mazkur masala allaqachon umumdavlat miqyosidagi konsensus tarziga o`tib bo`lgan. Xodim, o`z ish o`rnida kasbiy qobiliyatlarini mustaqil oshirib borishi orqaligina yaqin va uzoq istiqbolni anglashi mumkin. Bu albatta, jamoaviy ko`rsatkichlarning nafaqat barqarorligi saqlanishi, balki o`sish sur`atiga ijobiy turtkidir. Malakali kadrlar tayyorlashda moliyaviy baza yaratishga ham maxsus e`tibor asosida yuqori yoshdagi xodimlar ish haqi jamg`armasidan qo`shimcha 3,5% ajratma yosh xodimlarni tayyorlash zaxirasiga yo`naltiriladi.

Mehnatga haq to`lash yapon tizimida ham o`ziga xos jihatlar mavjud. Tizim asosini umrbod yollash shartlarini, rotatsiya, obro`ga yo`nalganlik hamda ish o`rnida tayyorlashning oqilona kombinatsiyasini ko`zlaydi. O`rtaga ish haqi ko`rsatkichi jahon mamlakatlari ichida yuqori o`rinlarda bo`lib kelgan. Ayni paytda umumdavlat miqyosida ham eng maqbul mutanosiblik, ya`ni o`rtacha mehnat haqi va yalpi ichki mahsulot o`sishining zamonaviy darajada takror o`sishining doimiy imkonini beradigan sur`ati ta`minlanadi. Tizim sifatini tabiiyki, xodimning yosh, malakaviy va boshqa bevosita hamda intizomi, tabiati (fe`li-xo`yi), qiziqishlari kabi bilvosita jihatlariga muvofiqlashtirilgan tartibda borishi ta`minlaydi. Yaponiyada ish haqining eng yuqori va quyi lavozimlararo tabaqalanishi faqat SHvetsiya (o`rtacha 3:1) dan keyingi o`rinda turadi. Ularda iqtisodiyotda xususiy sektor ulushi 90 % dan ortiq bo`lsa-da, milliy urf va an`analar, qadriyatlar ustuvorligi hukm suradi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda milliy ta`lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo`nalishi darajasiga ko`tarildi. O`zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati tomonidan keng e`tirof etilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi muvaffaqiyatli joriy etilishi natijasida yurtimizda noyob, uzluksiz ta`lim tizimi barpo etildi. Ushbu asosda amaldagi ta`lim tizimining barcha jabhalarida uzluksiz islohotlar olib borilishi bugungi Yangi O`zbekistonda eng dolzarb vazifalardan biri sifatida jadal davom etyapti. CHunki, bugungi kunda globallashuv jarayoni ta`lim tizimini ham qamrab oldi va u shiddat bilan rivojlanmoqda. Hukumatimiz ushbu holatni hisobga olgan holda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PF-5847-sonli farmoniga binoan, “O`zbekistonda oliy ta`lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish” kontseptsiyasini qabul qildi. Ushbu kontseptsiyada belgilab berilgan eng ustuvor vazifalardan biri – mamlakatimiz oliy ta`lim muassasalarini xalqaro ta`lim reytinglarida ishtiroki va kuchli 100, 500, 1000 talik ro`yxatga kirgan top universitetlar qatoridan joy olishi hisoblanadi[7]. Mazkur, salkam 50 yillik tarixga ega, Dunyo universititetlari reyting tizimidan kelib chiqadigani talablar O`zbekistonda ham bosqichma-bosqich tatbiq qilinayotganligi yuksak e`tirofga sazovordir[8]. Farmon ijrosini ta`minlash maqsadida mamlakatimiz OTMlari tomonidan faoliyatlarini yanada takomillashtirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Bunga muvofiq, 2020 yil 23 sentyabrda milliy ta`lim tizimimizni zamon talablariga mosligi bo`yicha so`nggi davrlardagi ta`lim sohasi bilan bog`liq ko`plab munosabatlarning yangidan-yangi asoslarini huquqiy mustahkamligini ta`minlash maqsadida O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida” Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun 11 ta bob va 75 ta moddadan iborat


bo`lib, milliy ta`lim tizimini xalqaro talablarga muvofiqlashuvining barcha munosabatlarini qamrab oladi. Qonunning 41-moddasida ta`lim tashkilotlari reytingini aniqlashda ustuvor maqsadlarning eng muhimi deb, ta`lim tashkilotlari o`rtasida sog`lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadi belgilab qo`yilgan.



1-rasm. Faoliyat yuritayotgan oliy ta`lim tashkilotlari soni (o`quv yili boshiga, birlik).


Manba: https://stat.uz/images/uploads/reliz-2023/2022-olij-talim-uzb29_05_2023.pdf

Mazkur sog`lom raqobat muhiti sharoitida so`nggi 5 yillikda oliy ta`lim maskanlari soni deyarli teng barobarga o`sdi (1-rasm). Yoki yillik o`rtacha o`sish sur`atlari 40% ga yaqin ko`rsatkichni tashkil etdi (191/98/5).



2-rasm. Xorijiy va nodavlat oliy ta`lim tashkilotlari.


So`nggi davrda oliy ta`lim sohasida sifat yuksalishi uchun xorijiy va nodavlat oliy ta`lim tashkilotlarining ham faoliyati erkinlashtirilishi natijasida, xorijiy ta`lim sub`ektlari 2,6 barobarga, xususiy sub`ektlar soni esa so`nggi 5 yilda umumiy sub`ektlarning 22 foiziga yetgani ijobiy holdir (2-rasm).



3-rasm. Oliy ta`lim tashkilotlari talabalarining ta’lim bosqichlari va turlari kesimida taqsimlanishi (o`quv yili boshiga, ming kishi)

Oliy ta`lim muassasalarida akademik ta`lim sifati tarkibida ham ijobiy islohotlar amalga oshirildi. Unga ko`ra so`nggi 5 yillik davr mobaynida bakalavriat va magistratura ta`lim bosqichida o`qiyotganlar soni mos ravishda deyarli 3 barobarga oshgani oliy ma`lumotlilarning akademik bilim saviyasi to`g`ri mutanosiblikda oshirish zamini ko`zlangani haqida dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagi keltirilgan fikr va mulohazalar asosida xulosa qilish mumkinki, olib borilayotgan islohotlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barcha qirralarida o`zaro mutanosib va barqaror ijobiy o`zgarishlarni keltirmoqda. Endilikda ta`lim sifatini yana ham ixtisoslashgan ravishda yuksaltirishga e`tibor qaratilishi zarur. Bu ayni tezkor axborotlashgan bugungi davrda muhim ahamiyatga ega bo`lib, ko`llangan islohotlar dastagi uzoq muddatli hamda bilvosita ta`sirdan, qisqa vaqtli, tezkor, bevosita samara keltirib chiqarishi ayon bo`lmoqda. Bu bir tarafdan zamonaviy kadrlarning kompetentligini yanada aniq unsurlarini ishlab chiqish va tatbiq etishga, shu bilan bir vaqtda ishlab chiqarish munosabatlari bilan nafaqat mosligi, balki ilgarilab borishiga zururat tug`diradi. CHunki, bugungi shiddatli globallashuv davrida milliy xo`jaligimizning xalqaro munosabatlarda munosib yutuqlarni o`zlashtirishi zarurdir.



4-rasm. Ta`lim sifati va ishlab chiqarish munosabatlari tizimi.
Manba: Muallif ishlanmasi.

Mazkur holatlardan kelib chiqib, ta`limning turli davrlari va xo`jalik sub`ektlari o`rtasidagi aloqalar integratsiyalashuvini jadallashtirish hamda natijaviyligini oshirishda davlat ustuvorligi o`z mavqeini yanada mustahkamlaydi. Ya`ni ushbu tizim orqali:

- milliy xo`jalik tarmoq va sohalaridagi dolzarb masalalarni fanlar akademiyasi va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan izchil va tezkor o`rganish, tartibga solish, tegishli me`yoriy-huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy dastaklarni qo`llash sifatini oshirishga urg`u beriladi;
- o`rta-maxsus va umumiy o`rta maktablarda olimlar hamda ilg`or kompaniya va firmalar xodimlarining kasbga yo`naltirish dasturlarini qo`llab-quvvatlanadi. Ayni vaqtda ushbu ta`lim muassasalarining milliy xo`jalik tizimi bilan integratsiyalashuvi muammolarini tadqiq qilib boriladi;
- oliy ta`lim sohasidagi dolzarb muammolar, ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish tizimi muntazam mexanizmini ishlab, miqdori va sifat natijadorlikni oshirish bo`yicha ilmiy asoslangan yechimlar qabul qilinadi;
- xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning ichki milliy bozorga moslashuvi va barqarorligini ta`minlashga, import o`rnini bosuvchi, eksportbop ishlab chiqrishga, bosqichma-bosqich jahonning ilg`or talablari darajasidagi miqdor va sifat talablariga moslashib boriladi;
- xorijiy sub`ektlar bilan uzviy hamkorlik olib borilib, milliy xo`jalikning barcha soha va tarmoqlari uyg`un rivojlanishiga yo`naltiriladi, pirovardida xududlarda undirma va ishlov beruvchi sanoat, qishloq xo`jaligi, xizmat ko`rsatish, IT, transport-

logistika va boshqa ko`plab sohalarda sinergetik samaralarga erishishning ilmiy asoslari xo`jalik faoliyatiga tatbiq etib, amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1.Mirziyoyev SH.M. Yangi O`zbekiston strategiyasi/-Toshkent: “O`zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b., 41-b. ISBN 978-9943-3-6.;

2.Волков С.А.“Сергей Волков: для того чтобы начался рост экономики в инновационном секторе, нужно создать критическую массу изменений и в общественных институтах, и в головах” М.-“Профи-Пресс”, журнал: БОСС/ Бизнес: организация, стратегия, системы/. Январь 2014, 60-стр.

3.Эрматов И.Н. Эффективность регионального АПК: методы измерения и оценки. Монография. Т.-“Мехнат”, 1988. – 128 с., 11-стр.;

4.Абдурахманов К.Х., Одегов Ю.А. и авт.колл. Экономика труда. Уп. Т.: Филиал ГОУ ВПО “РЭУ им. Г.В. Плеханова” в г.Т., 2011. – 448 с.,291-стр,;

5.https://yuz.uz/ru/news/sinergeticheskiy-effekt-vnedrenie-dostijeniy-nauki-v-kajduyu-sferu-i-uskorenie-ee-integratsii-s-proizvodstvom;

6.Волгин Н. Экономику Японии вывела вперед не техника а человек. Журнал: Человек и труд. 5/98., 90-с.

7.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoniga 1-ilova. O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi;

8.Israilov Z.A. O`zbekistonda oliy ta`lim muassasalari faoliyatini “THE” xalqaro reytingi orqali baholashning ta`lim sifati uchun ahamiyati va uning o`ziga xos muammolari. Mashinasozlik ilmiy-texnika jurnali. №1, 2022 y., 263-b.

ANDIJON VILOYATI HUDUDIY SANOAT TARMOG‘INING RIVOJLANISHDA PERSONALNI BOSHQARISH HOLATINI VA O‘ZGARISH TENDENSIYALARI.

O.X.Maxmudov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti,professori,
Iqtisod fanlari doktori
E-mail: maxmudovodiljon1965@gmail.com

Iqtisodiyotning sanoat tarmog‘ida, jumladan yengil sanoat tarmog‘ida personalni boshqarish holatini aniqlash, bu yo‘nalishni rivojlantirish tendensiyasini aniqlash,